

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-dekabr

E'tibor bering:


- 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 63,4 % tashkil etdi.
- 12,1 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yeklarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 24,8 birlikni tashkil qildi.

Toshkent shahrida hozirgi vaqtida kichik tadbirkorlik (biznes) ni rivojlantirish bo'yicha sezilarli darajada e'tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash, shuningdek, litsenziyalar va ruxsatnomalarning rasmiylashtirilishi shaffofligini tubdan soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirildi.

Natijada, 2018 yilning yanvar-dekabrida 12.1 mingta yangi kichik korhona va mikrofirmalar tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26.7 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (28,2 %), sanoat tarmog'ida (18,8 %), qurilish tarmog'ida (11,9 %), yashash va ovqatlanishda (8,6 %), aloqa va axborotlashtirish (5,3 %), tashish va saqlash (4,5%) sohasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'Ichov birligi	2017 y.	2018 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	52314	59993	7679
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar	birlik	9526	12071	2545
YaHM	%	64,2	63,4	-0,8
Sanoat	%	41,2	34,7	-6,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%			
Investitsiya	%	52,1	52,3	0,2
Qurilish	%	69,7	72,0	2,3
Savdo	%	78,1	75,5	-2,6
Xizmatlar	%	51,1	50,0	-1,1
Yuk tashish	%	66,0	68,8	2,8
Yuk aylanmasi	%	12,3	12,1	-0,2
Yo'lovchi tashish	%	77,5	77,7	0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	82,2	81,5	-0,7
Eksport	%	19,4	24,1	4,7
Import	%	67,7	60,2	-7,5

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona
va mikrofirmalar**


(birlikda)

	yanvar-dekabr 2017 y.	yanvar-dekabr 2018 y.
Toshkent shahri	9526	12071
tumanlar:		
Uchtepa	882	985
Bektemir	218	248
Yunusobod	1196	1652
Mirzo Ulug'bek	1134	1433
Mirobod	731	1089
Shayxantohur	988	1226
Olmazor	1004	1208
Sergeli	530	724
Yakkasaroy	717	1083
Yashnabod	850	949
Chilonzor	1276	1474

2018 yilda yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Yunusobod tumanida - 1652 ta, Chilonzor tumanida– 1474 ta, Mirzo Ulug'bek tumanida– 1433 ta.

Shayxantohur tumanida– 1226 ta, Olmazor tumanida - 1208 ta, Mirobod tumanida - 1089 ta va Yakkasaroy tumanida –1083 ta bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, eng past ko'rsatkichni Uchtepa tumanida –985ta, Yashnabod tumanida –949 ta va Bektemir tumanida –248 tani tashkil etgan.

**2018 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, foizda**



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Yunusobod tumani - 13,6 %, Chilonzor tumani - 12,2 %, Mirzo Ulug'bek tumani - 12,0 %, Shayxantohur tumani - 10,1 %, Olmazor tumani - 10,0 %, Mirobod tumani-9,0 %, Yakkasaroy tumani –9,0 %, Uchtepa tumani– 8,2 %, Yashnabod tumanida - 7,9 %, Sergeli tumanida - 6,0 % va eng past ko'rsatkich Bektevmir tumanida - 2,0 %ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-dekabr 2017 y.	yanvar-dekabr 2018 y.
Jami	9526	12071
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	236	201
Sanoat	2557	2268
Qurilish	991	1439
Savdo	1868	3407
Tashish va saqlash	424	543
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	938	1041
Axborot va aloqa	436	641
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	142	175
Boshqa turdag'i xizmatlar	1934	2356

2018 yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p savdoda 3407 ta, shuningdek :

Savdoda - 3407t ;


sanoatda - 2268 t ;

qurilishda - 1439 ta;

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 1041 ta;

Axborot va aloqa - 641 tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda - 3407 ta, sanoatda - 2268 ta, qurilishda - 1439 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 1041 ta, axborot va aloqada - 641 ta, tashish va saqlashda—543 ta, qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligida - 201 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 175 ta va boshqa turdag'i xizmatlarda - 2356 tani tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda

	yanvar-dekabr 2018 y.	yanvar-dekabr 2017 y.	farq (+-)
Yunusobod tumani	1652	1196	456
Yakkasaroy tumani	1083	717	366
Mirobod tumani	1089	731	358
Mirzo-Ulug'bek tumani	1433	1134	299
Shayxontoxur tumani	1226	988	238
Olmazor tumani	1208	1004	204
Chilonzor tumani	1474	1276	198
Sirg'ali tumani	724	530	194
Uchtepa tumani	985	882	103
Yashnabod tumani	949	850	99
Bektemir tumani	248	218	30


2018 yil yanvar-dekabrida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Yunusobod tumanida – 456 ta, Yakkasaroy tumanida - 366 ta, Mirobod tumanida - 358 ta. Mirzo-Ulug'bek tumani –299 ta , bu ko'rsatkich 330 tani tashkil etdi, Mirzo-Ulug'bek tumanida - 299 ta, Shayxontoxur tumanida - 238 ta. Olmazor, Chilonzor va Sirg'ali tumanlarida bu ko'rsatkich 204 -194 tani tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Uchtepa tumani-103 ta, Yashnabod tumanida - 99 ra va Bektemir tumanida -30 ta bo'lib qolmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda




2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 49,1 birlikda, Bektemir tumanida 38,6 birlikda, Mirobod tumanida 37,2 birlikda, Chilonzor tumanida 32,7 birlikda, Mirzo Ulug'bek tumanida bu ko'rsatkich 26,0 birlikda, Yunusobod tumanida 25,9 birlikda. O'rtacha ko'rsatkich Sergeli tumanida 20,8 birlikda va Yashnabod tumanida 20,4 birlikda. Uchtepa tumanida 20,2 birlikda, Olmazor tumanida 18,3 birlikda va Shayxantohur tumanida 17,8 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2018 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Agar, 2017 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 21,8 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 24,8 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 3 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga.



Quyida, 2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 72,9 %, qurilishda - 72,0 %, investitsiyada - 52,3 %, savdoda - 75,5 %, eksportda - 24,1 %, importda - 67,7 % va xizmatlar sohasidagi - 50,0 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlarida




Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-dekabr holatiga, %

2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbir-korlikning YaHMdagi ulushi 63,4 %ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-dekabrdagi 64,2 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2018 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Toshkent sh.	72,9	72,0	50,0	52,3
tumanlar:				
Uchtepa	91,1	91,2	85,2	47,4
Bektemir	67,4	25,9	96,7	87,4
Yunusobod	87,1	77,1	33,2	76,1
Mirzo-Ulug'bek	46,2	64,9	55,4	73,8
Mirobod	45,2	40,9	32,6	20,2
Shayxantohur	56,2	42,2	57,0	40,0
Olmazor	91,4	96,6	73,1	72,4
Sergeli	86,2	99,2	45,5	15,0
Yakkasaroy	90,2	98,3	66,9	74,9
Yashnabod	71,0	97,6	39,8	58,4
Chilonzor	83,0	80,8	57,2	79,7

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Olmazor tumani (91,4 %), Uchtepa tumani (91,1 %) va Yakkasaroy (90,2 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Sergeli (99,2 %), Yakkasaroy (98,3 %), Yashnabod (97,6 %), Olmazor (96,6 %) va Uchtepa (91,2 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Bektemir (96,7 %), Uchtepa (85,2 %), Olmazor (73,1 %) va Yakkasaroy (66,9 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Bektemir (87,4 %), Chilonzor (79,7 %), Yunysobod (76,1 %), Yakkasaroy (74,9 %), Mirzo Ulug'bek (73,8 %) va Olmazor (72,4 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning Yanvar–Dekabrida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:



72,9 %

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 31051,5 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 72,9 %) yoki 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o'sish sur'ati 110,6 %ni tashkil qildi;

– 11430,7 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 52,3 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 116,2 %ni tashkil qildi;

52,3%



72%

– 6308,6 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 72,0 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 113,0 %ni tashkil qildi;

50,0%



– 24179,9 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (jami xizmatlar xajmining 50,0%), 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 106,9 %ni tashkil qildi;



75,5%

– chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 75,5 % yoki 22270,4 mlrd. so`mi (o'sish sur'ati 1,1 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

24,1%



– 692,3 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 24,1 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 166,3 mln. AQSh dollariga yoki 31,6 %ga ko`p;



5,7 %


– avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,7 %ga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 68,8 %) ko`payishi ta'minlandi;

3,1 %




– yo`lovchi aylanmasining esa 3,1 % ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 77,7 %) ko`payishi ta'minlandi.

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Bektemir tumanida - 90,8 %, Chilonzor – 89,4 %, Shayxantoxur tumani - 89,3 %, Yashnabod tumani - 84,3 %, Yakkasaroy tumani - 80,3 %, Uchtepa tumani - 66,9 %, Olmazor tumani - 59,1 %, Sirgeli – 32,0 %, Yunusobod tumani - 12,5 %, Mirzo Ulug'bek tumani - 6,0 %, Mirobod tumani - 1,0 %, Toshkent sh. - 24,1%, Navoiy viloyati - 17,1 %, eng past ko'rsatkich Mirobod tumani - 1,0 %ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Olmazor tumani (4453,3 mlrd.so'm), Yashnabod (3832,7 mlrd.so'm), Sergeli (3569,7 mlrd.so'm), Chilonzor (3392,3 mlrd.so'm) va Yunusobod (3035,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yakkasaroy tumanida (1816,4 mlrd.so'm) va Mirobod tumanida (1343,4 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (91,4%), Uchtepa tumani (91,1%), Yakkasaroy tumani (90,3%), Yunusobod tumani (87,1%), Sergeli tumani (86,5%), Chilonzor tumani (83,0%), Yasnabod tumani (71,0), Bektemir tumani (67,4%). Shayxantohur tumani (56,2%), Mirzo Ulug'bek tumani (46,2%) va Mirobod tumanida (45,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Uchtepa tumani (3466,0 mlrd.so'm), Bektemir (3427,6 mlrd.so'm), Chilonzor (3376,5 mlrd.so'm), Shayxantohur (2809,0 mlrd.so'm) va Yunusobod (2776,6 mlrd.so'm) tuvanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarigan qurilish ishlari hajmi Chilanzor tumani (966,0 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek (813,7 mlrd.so'm), Yakkasaroy (754,7 mlrd.so'm) va Yashnabod (689,3 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.




2018 yil yanvar- dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Yunusobod (2937,3 mlrd.so'm), Shayxantohur (2899,2 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek (2696,8 mlrd.so'm), Chilonzor (2644,2 mlrd.so'm) va Mirobod (2433,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil IV - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 367 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonaları - 70 (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonidan 19 %), qurilish - 44 (12 %), savdo - 134 (36 %), xizmatlar sohasi - 113 (30 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 6 (2 %).

**2018 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**



Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Mirzo Ulug'bek va Olmazor tumanida - 12,8 %dan, Yunusobod tumanida - 11,7 %, Shayxantohur va Chilonzor tumanlari - 10,1 %dan, Yakkasaroy tumanida - 9,8 %, Mirobod va Yashnabod tumanlarida - 8,7 %dan, Sergeli tumanida 7.1%, Uchtepa tumanida 6,6%, Bektemir tumanida 1.6% ni tashkil qildi.


2018 yil IV – chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan Mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 9,1 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 59,1 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 18,2 % va 53,5 %, xizmatlar sohasida – 12,4 % va 68,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0 % va 50,0 %, sanoatda – 11,4 % va 61,4 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 27,1 %, qurilishda – 31,8 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 50,0 %, xizmatlarda – 19,6 % va savdoda – 28,3 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil IV–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 54,3 % sanoat korxonalari, 58,6 % – savdo, 53,6 % – xizmatlar, 100 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 56,8 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rileyotgan chora tadbirdalar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: J.Xolov

Tel.: (71) 230-88-09, 230-88-29